



**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA**  
**O'QITUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI**  
**RIVOJLANTIRISH**

*Qo'qon universiteti pedagogika – psixologiya kafedrasi dotsenti*

*Isabaeva M. M., p.f.f.d (PhD),*

*biologiya kafedrasi katta o'qituvchisi,*

*Tel: +88-625-42-02. mashxuraisabaeva1978@mail.com*

*Rahimjonova Muxlisa*

*Biologiya ta'lif yo'nalishi 1-kurs magistranti*

*rahimjonovamuxlisa79@gmail.com*

**Annatosiya:** Maqolada umumta'lim maktablarida biologiyani o'qitishda o'qituvchilarda tayanch kompetensiyalarini tarkib toptirish imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Umumta'lif maktablari, biologiya, tayanch kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yil 19-sentabrda AQShning Nyu - York shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlari qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida «Yoshlari huquqlari to'g'risidagi konvensiya»ni qabul qilishni taklif qildi. Prezidentimiz bunga asos qilib, yoshlarning soni ikki milliarddan ortib borayotgani, xalqaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida ko'rsatdi. Ushbu konvensiyani imzolagan a'zo davlatlar mamlakat ijtimoiy siyosatida yoshlari masalasini muhim yo'nalish sifatida ko'rib, zimmasidagi katta mas'uliyatni ado etish



kerak, deb fikr bildiradi. Mazkur zarurat yoshlarni tuban ommaviy madaniyat hurujlaridan himoya qilish, ularni sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari vositasida tarbiyalash muhim omillardan sanaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Respublikamizda ta'lim tizimini axborotlashtirish, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga oid nazariy, metodik tadqiqotlar J.O.Tolipova, YU.M.Asadov, R.G.Isyanova, N.A.Muslimov, B.Z.To'raev, T.T.SHaymardonov, O.Mavlonov, G.S.Ergasheva, A.Raximov, I.Azimov, M.N.Ibodova, N.J.Toshmanov, S.Najimova va I.A.Eshmatovlar tomonidan pedagogik asoslari takomillashtirib borilgan. Nazariy tadqiqotlar mantig'i bizni bo'lajak o'qituvchining metodik kompetensiyasini shakllantirish jarayoni mushohadaga asoslangan, biroq, oxirgi o'quv faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Pedagog olim A.K Raximov "Evolusion ta'limot" fanini o'qitish misolida talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan, kompetensiyaviy yondashuvning umumiy xususiyatlari, xususiy biologik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi bayon etilgan [6].

Pedagogika sohasida kasbiy kompetentlik tarkibini olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi, shuni ta'kidlashimiz lozimki, turli rakursdagi qarashlarda tadqiqotchilar pedagogik faoliyatning u yoki bu tarkibiy qismiga urg'u beradi. Tahlillar asosida yaxlit holda pedagogning kasbiy kompetentligini quyidagi tarkibiy qismlarini ajratish mumkin: kognitiv, kasbiy-texnologik, axborot, kommunikativ, metodik va boshqalar.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishinigina emas, balki har bir mustaqil yo'naliish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Umumta'lim maktablarining biologiya fani o'qituvchisi



kommunikativ kompetensiyani tarkib toptirishni nazarda tutgan holda biologiya darslarida o‘qituvchilarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo‘ladigan og‘zaki va yozma nutqni mukammal o‘zlashtirishi, o‘z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo‘srimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og‘zaki javob yozish, o‘z o‘rtoqlari va ustozlar bilan muloqotda muomala madaniyati me’yorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishslash jarayonida guruh a’zolarining fikrini hurmat qilgan holda o‘z fikrini bayon eta olish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalariga asoslangan holda o‘z fikrini himoya qilish va ishontira olish, darslarda tashkil etiladigan o‘quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish, o‘z ona tili bilan bir qatorda horijiy tillarni o‘zlashtirishiga zamin yaratishi lozim [7,8].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya o‘quv fanidan DTS bilan me’yorlangan quyidagi o‘quv mehnati ko‘nikmalari o‘qituvchilarda kommunikativ kompetensiya tarkib toptirishga asos bo‘ladi:

Darslik bilan ishslash ko‘nikmalari:

- *darslikning kirish qismida berilgan ko‘rsatmalarni bilish va qo‘llash;*
- *rang bilan ajratilgan iboralarni ajrata olish;*
- *darslikning mundarijasи asosida mo‘jal olish;*
- *simvollar va tayanch signallarni bilish va foydalanish;*
- *kolontitullardan foydalanishni bilish;*
- *ko‘rsatmalardan foydalana olish.*

Matn ustida ishslash ko‘nikmalari:

- *o‘qilgan matnga reja tuza olish;*
- *matndan foydalanib savollarga javob topish;*
- *matndan foydalanib ma’ruza yozish;*
- *darslik matnidan foydalanib amaliy xarakterdagi topshiriqlarni bajara olish;*
- *darslik matnidan foydalanib jadval, diagramma, sxemalar tuza olish;*

- *darslik matnidan foydalanib tushuncha, qoidalarni topa olish;*
- *obyektning tavsifini tuzish, xulosa yasash.*

O‘qituvchilarda yuqorida qayd etilgan o‘quv mehnati ko‘nikmalarining tarkib toptirilishi uchun o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tavsija etiladi. Biologiya fani o‘qituvchilarida axborot bilan ishslash kompetensiyasini tarkib toptirish maqsadida mavzuga oid o‘quv va videofilmardan foydalanishi, qo‘sishimcha adabiyotlar va internet saytlaridagi ma’lumotlarni saralashi, shu asosda o‘qituvchilarga referat, doklad va taqdimot materiallarini tayyorlash yuzasidan topshiriqlarni berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi uchun dars, darsdan tashqari ishlari, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan samarali va o‘z o‘rnida foydalanishi zarur. Biologiya o‘qituvchisi “Yosh biologlar” to‘garagining ish rejasini tuzishda o‘quvchilarda axborot bilan ishslash kompetensiyasini tarkib toptirish nazarda tutishi lozim. Biologiya o‘qituvchilarining shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini tarkib toptirish maqsadida o‘qituvchilarning mustaqil ishlari va ta’limiga e’tibor qaratishi, o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholashi uchun mavzular bo‘yicha standart va nostandard o‘quv va test topshiriqlari bazasini yaratishi, uni kompyuter xotirasiga joylashtirib adaptiv test topshiriqlariga aylantirishi, shuningdek, o‘qituvchilar bilan o‘tkaziladigan ma’naviyat daqiqalarida jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga erishishga yo‘naltirish talab etiladi [1].

Biologik ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini tarkib toptirish imkonini beradi. Biologiyani o‘qitish jarayonida o‘qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini tarkib toptirishda biologiya darslari, darsdan tashqari ishlari, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur jarayonda o‘qituvchilarni tabiat va jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlar, mavzuga doir O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari bilan tanishtirish, aqliy, ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e’tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan



ravnaqiga hissa qo'shish, jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, saxovatli bo'lishga undaydi. O'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini tarkib toptirishda o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlar muhim o'rinn tutadi. Tabiat muhofazasiga oid kechalar, ko'kalamzorlashtirish tadbirlari, taniqli yozuvchilar va olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish o'qituvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi [2].

O'qituvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni tarkib toptirish uchun o'qituvchi biologiyani o'qitishda o'quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish, xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish, orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasi barobarida estetik tarbiyaga e'tibor qaratishi lozim [3,5].

O'qituvchilar bilan o'tkaziladigan mavzuli kechalar, tadbirlar, uchrashuvlar, shanbaliklar o'qituvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilarda matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirishda biologiya o'qituvchisi o'qituvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida hisoblashga doir biologik masalalar, nostandard o'quv topshiriqlari bilan ishlashni yo'lga qo'yiladi [4].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Shuni e'tiborga olgan holda biologiyadan o'qituvchilarda tarkib toptiriladigan xususiy kompetensiyalar quyidagicha belgilandi:

1. Biologik ob'ekt, hodisa, jarayonlarni tushunish, tanish, izohlash kompetensiyasi. Biologiya fanining ilmiy-amaliy soha ekanligini anglesh, uning



inson va tabiatdagi ahamiyatini anglash, biologiya fani o‘rganadigan ob’ektlarni tushunish va anglash, biologiyaning o‘rganish metodlarini izohlaydi.

2. Biologik ob’yekt, hodisa, jarayonlar ustida kuzatish va tajribalarni o‘tkazish kompetensiyasi. Tirik organizmda boradigan tiriklik belgilarini va ularning xususiyatlarini tushunish va tushuntira olish. Biologiya fanining o‘rganish metodlarini farqlay olish.

3. Sog‘lom turmush tarzi va ekologik kompetensiya. Tirik organizmlarning inson hayotidagi ahamiyatini anglab yetish, ularni muhofaza qilishni o‘rganish.

Biologiya o‘qituvchisi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilarda yuqorida ko‘rsatilgan kompetensiyalarni har bir mavzuni o‘rganish jarayonini loyihalashda dastlab shu mavzu mazmunidagi bilim, ko‘nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalarni belgilashi, darsning texnologik xaritasida mazkur masalalar o‘z ifodasini topadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. M.Yuldashev. Xalq ta‘limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish. ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2016.
2. Xodjayev. Metod, usul va texnologiya mazkur tushunchalarni farqlay olasizmi?. Mahrifat. – T.: 2021.
3. Sazonova S. D. Ispolzovanie texnologii proektnogo obucheniya na urokax v nachalnoy shkole. — CHita: 2018. — S. 95-98.
4. Mashkhura Mukhiddinovna Isabayeva, Sarvigul Ravipjonovna Otajonova DOI: pedagogical factors of preparation of future teachers of biology for professional-pedagogical activities. 10.5958/2249-7137.2021.01564.0
5. Mashxura Muxiddinovna Isabaeva. Talabalarni o‘z ustida mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. Scientific progress. Volume 2 | issue 2 | 2021. Issn: 2181-1601
6. Raximov A.K. Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (“Evolusion ta’limot” fanini o‘qitish misolida) Avtoref. dis. ped. fan. doktori. - T.: TDPU, 2019y. - 62 b.



7. Isyanov R.G. Klasternyyu podxod v formirovaniii modul'noy kompetentnosti prepodavateley vysshix obrazovatel'nyix uchrejdeniy. Tashkent: TGPU, 2014. 69 s.
8. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'kituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik assoslari: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. Toshkent: TDPU, 2007. 47 b.